



## RULES FOR STORING COTTON AND DETERMINING ITS QUALITY DURING STORAGE

**Yuldasheva Dilorom Xusniddin qizi  
Mehmonova Shahina Ochilovna**

Gulistan State University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11201860>

### ARTICLE INFO

Received: 09<sup>th</sup> May 2024

Accepted: 15<sup>th</sup> May 2024

Online: 16<sup>th</sup> May 2024

### KEYWORDS

Fiber, lint, light industry,  
export, construction,  
drying, regenerators.

### ABSTRACT

*Currently, 80-85% of raw cotton grown in our republic is high-grade cotton. This, in turn, is one of the urgent issues of keeping high-grade cotton with natural quality indicators, drying and cleaning using special modern low-energy techniques. This article talks about the effect of temperature changes on the quality of raw cotton during storage.*

## ПРАВИЛА ХРАНЕНИЯ ХЛОПКА И ОПРЕДЕЛЕНИЕ ЕГО КАЧЕСТВА ПРИ ХРАНЕНИИ

**Юлдашева Дилором Хусниддиновна  
Меҳмонова Шаҳина Очиловна**

Гулистанский государственный университет

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11201860>

### ARTICLE INFO

Received: 09<sup>th</sup> May 2024

Accepted: 15<sup>th</sup> May 2024

Online: 16<sup>th</sup> May 2024

### KEYWORDS

Волокно, ворс, легкая  
промышленность,  
экспорт,  
строительство, сушка,  
регенераторы.

### ABSTRACT

*В настоящее время 80-85% хлопка-сырца, выращиваемого в нашей республике, является высококачественным хлопком. Это, в свою очередь, является одним из актуальных вопросов сохранения высококачественного хлопка с натуральными показателями качества, сушки и очистки с использованием специальных современных низкоэнергетических технологий. В данной статье говорится о влиянии изменения температуры на качество хлопка-сырца при хранении.*

## PAHTANI SAQLASH QOIDALARI VA UNI SAQLASH DAVRIDA SIFATINI ANIQLASH

**Yuldasheva Dilorom Xusniddin qizi  
Mehmonova Shahina Ochilovna**

Guliston davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11201860>

### ARTICLE INFO

### ABSTRACT



Received: 09<sup>th</sup> May 2024

Accepted: 15<sup>th</sup> May 2024

Online: 16<sup>th</sup> May 2024

## KEYWORDS

Tola, momiq, yengil sanoat, eksport, konstruktsiya, qurutish, regeneratrlar.

*Hozirda respublikamizda yetishtiriladigan paxta xom ashyosini 80-85 % yuqori navli paxta tashkil qilmoqda. Bu esa o'z navbatida yuqori navli paxtani tabiiy sifat ko'rsatkichlarini saqlash, qurutish va tozalashni maxsus zamonaviy kam energiya talab qiladigan texnikalardan foydalanish dolzarb masalalardan biri bo'lib xisoblanadi. Ushbu maqolada paxta xom ashyosini saqlash jarayonida xarorat o'zgarishi sifatiga ta'siri haqida so'z yuritilgan.*

## KIRISH.

Ingichka tolali paxta navlari normal o'sishi va rivojlanishi uchun, chigitning unib chiqishini ham qo'shganda, eng qulay harorat 25-30° daraja hisoblanadi. 20° darajadan past haroratda g'ozaning rivojlanishi sustlashadi. Haroratning pasayishi g'ozaga rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi va bu yaqqol seziladi. Harorat 17 °C ga tushganda o'simlikning rivojlanishi haddan tashqari sekinlashib qoladi. Ingichka tolali paxta navlari sovuqqa bir muncha chidamliroq bo'ladi ba'zi navlar qisqa mudatda -5°, -7° xatto -10° sovuqqa bemalol chiday oladi. Ingichka tolali paxta navlari qurg'oqchilikka chidamli bo'lishi va ildiz sistemasining kuchli o'sib, tuproq ichiga ancha chuqur kirib borishidan qat'i nazar, u suv bilan yetarli miqdorda ta'minlangandagina yaxshi o'sib rivojlanadi va serko'sak hosil shoxlarini chiqaradi, ya'ni mo'l hosil to'playdi. G'ozaga gullash davrida uning absolut suv sarfi yuqori darajaga ko'tariladi, chunki bu davrda o'simlik kuchli o'sib, unda juda katta bug'latish sathi vujudga keladi. Bundan tashqari, gullash davrida g'ozaga atrofidagi muhit havosining harorati va quruqligi yuqori darajaga yetadi.

Hosil pishish davrida ingichka tolali paxta navining suv sarflashi asta – sekin kamayadi. Bu g'ozaning hayot faoliyati, jumladan, o'sish jarayoni sustlashishi, o'simliklarda barglar qisman to'kilib, ayrim ko'saklar pishib, go'zaning umumiy sathi kamayishi va bu davrda havo harorati biroz pasayib, namligi sal oshishi bilan bog'liq. G'ozaning yetilish davrida transpiratsiyaga sarflaydigan sutkalik suv miqdori gektariga taxminan 30—40 m<sup>3</sup> ni, butun o'sish davrida esa taxminan 5000—6000 m<sup>3</sup> ni tashkil etadi.

## ASOSIY QISM VA NATIJALAR.

G'aramlarda saqlanayotgan ingichka tolali paxta navlari birinchi o'lchovda ko'rsatilgan xaroratdan yuqori bo'lsa yoki ma'lum bir nuqtalarda dastlabki o'lchovlardan so'ng 20-30 ko'tarilsa g'aramlardan nam havoni so'rish va paxta xaroratini majburiy ravishda sovitish bo'yicha zudlik bilan chora ko'rish kerak. Havoni so'rish tunel orqali olib boriladi. Tunelning kengligi 0,8-1 m, balanligi esa 1,8-2 m dank am bo'lmasligi kerak Havoni so'rish uchun maxsus UVP qurulmasidan foydalaniladi. Paxtaning rangi buzulmasligi va saqlashdan so'ng oq rangda bo'lishi uchun havoni profilaktik tortish muddati 8 soatdan oshmasligi lozim. Saqlanayotgan paxtadan havoni tortish belgilangan mudatlarda o'tkazilib turulsa, bu paxtaning tabiiy sifati 5-6 soatgacha buzulmaydi.

Paxta tayyorlov punktlariga topshiriladigan ingichka tolali paxtaning sifati O'zSTD 615-94 standartlariga muvofiq amalga oshiriladi, paxta ifloslanganligiga qarab navlarga bo'linadi. Ingichka tolali paxta navlarini tashqi ko'rinishini aniqlashda yorug'lik kamida 300 lyuks bo'lishi kerak. Ingichka tolali paxta navlarini qabul qilishda zavodlarda 2 usulda qabul



qilinadi. Organaleptik va tolaning pishiqligiga qarab qabul qilinadi. Saqlashda ingichka tolali paxta navlari g'aramlarda va yopiq omborlarda saqlanadi, yopiq saqlash joylarida paxta joylashtirilganda o'rta zichligi quydagicha bo'lishi kerak, I va II sanoat navlari uchun 11% gacha namlik bilan 150-190 kg/m<sup>3</sup>, past sanoat navlari 14% gacha namlik bilan 130-160 kg/m<sup>3</sup>.

Havo harorati 30<sup>0</sup> dan yuqori bo'lgan kunlardagina ingichka tolali paxta navlarini havoni tortish kechasi o'tkazilgani maqul. Havoning nisbiy namligi 80% dan yuqori bo'lganda, profilaktik tadbirlar o'tkazilmaydi. Nam paxtani g'aramlarga joylashtirish va o'z vaqtida havoni o'z vaqtida tortmaslik oqibatida paxta o'z-o'zidan qiziy boshlaydi. Natijada tolaning rangi o'zgaradi, navi pasayadi, urug'ining sifati keskin pasayib ketadi. Shuning uchun saqlanayotgan I va II nav paxtani xar 10 kunda, III-IV-V nav paxtani xar 5 kunda tekshirib turish kerak

G'aramlarda saqlanayotgan ingichka tolali paxta navlarini haroratini aniqlash uchun termoshup g'aramning 8 nuqtasida 3 m chuqurlikda; yopiq omborlar, shiyponlarda esa 4 nuqtadan g'aram balandligini ng yarimigacha kiritilib o'lchanadi. Paxta xarorati issiq kunlarda 250 gacha chegaradan yuqori bo'lsa meyorida hisoblanadi. G'aramlashda paxtalasrni g'aram chetidan kamida 0,5 m ichkarida 2,5-3 m kenglikda zichlay boshlash kerak. G'aramlarning qiyshayib ketmasligi, deformatsiyalanmasligi va yoriqlar xosil bo'lmasligi uchun paxtani shibalashga qalinligi 0,8-1 m bo'lganda kirishiladi, Paxta buntining yonidan yonidan 0,5 m dan 2,5-3 m gacha shibalanadi. G'aram maydonchasining atroflariga to'kilgan paxtani ifloslanmasligi uchun 1,5-2 m brzent to'shab qo'yiladi, bir kunda 5 ta g'aramga 50-60 tonna paxtani joylashtirish va bita g'aramni 10 kun ichida joylashtirib tayyor qilish kerak. Ochiq maydonlarda saqlanayotgan ingichka tolali paxta navlarini yomg'ir va namgarchilikdan saqlash uchun o'lchami 8,5-7 m li brzentlardan foydalaniladi.

## 1-jadval

### G'aramlarda saqlanayotgan paxtadan havoni tortish muddatlari

Paxtaning namligi %	Havoni tortishi vaqti			Havoning nisbiy namligi % (ko'pi bilan)
	Birinchi marta g'aramlash bitgandan keyin necha kun o'tgach	Ikkinchi marta necha kun o'tkach	Keyenchalik xar gal necha kun o'tkach	
<b>I-II nav paxtani saqlanganda</b>				
12-14 %	7-10 kunda	10 kunda	15 kunda	75%
14-16 %	5-8 kunda	8 kunda	12 kunda	80%
16-18 %	5 kunda	5 kunda	8 kunda	85%
<b>III-IV-V nav paxtani saqlaganda</b>				



14-16 %	7-10 kunda	10 kunda	15 kunda	75%
16-18 %	5-8 kunda	8 kunda	10 kunda	85%
18-20 %	3-5 kunda	5 kunda	8 kunda	90%
20 % yuqori	3-4 kunda	5 kunda	7 kunda	95%

Paxtani uzoq vaqt yaxshi holatda saqlash va undan sifatli tola olish uchun uning navi va sinfini hisobga olgan holda ko'rsatilganidek tabaqalab to'plash zarur.

Paxtani g'aramlashdagi paxta navi, sinfi va namligi hisobga olingan holda 16-jadvalda ko'rsatilganidan ortmasligi kerak.

Namligi 20-22% bo'lgan paxta quritish tozalash bo'limi yaqiniga qo'yiladi va tazda quritilib, paxta tozalash korxonasiga qayta ishlash uchun jo'natiladi

Paxta tozalash korxonasi qoshidagi tayyorlov maskanida quritish-tozalash bo'limining qayta ishlashini hisobga olib, namligi 14% gacha bo'lgan paxtani tozalash bo'limi zonasiga, namligi 14% dan yuqori bo'lgan paxtani esa quritish tozalash bo'limi zonasiga to'kish maqsadga muvofiqdir.

Paxtakorxonona va tayyorlov maskan laboratoriyasi I-II navlar paxta holatini har 10 kunda, III-V navlar holatini esa har 5 kunda tekshirib turadi.

Tayyorlov maskanida paxta qoniqarsiz holatda saqlangan taqdirda tayyorlov maskani mudiri va klassifikator aniqlangan kamchiliklarni tugatish choralari ko'radilar

Laboratoriya paxtani g'aramlar va omborlarga joylashtirish va saqlanish holati ustidan to paxta paxta tozalash korxonasiga jo'natishgacha nazoratini tashkil qiladi. G'aramlardagi paxtaning namligi yuqori bo'lgan joylarini o'z vaqtida aniqlash uchun tayyorlov maskani laboratoriyasi saqlanayotgan paxtaning haroratini TЩ-01 rusumli elektron harorat o'lchagichida quyidagi muddatlarda tekshirib turadi.

I va II nav paxtaning bir kunlik o'rtacha namligi 9-13 foiz , III, IV va V nav paxtaning namligi 15-17 foizdan ortmagan to'dalarda har besh kunda, namligi katta bo'lgan to'dalarda esa har uch kunda tekshiriladi.

## References:

1. Ungarov, A., & Xolmatova, O. (2024). PAXTA MOMIG 'INI CHIGITIDAN AJRATISH USKUNALARI KONSTRUKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 3(4), 53-55.
2. Унгаров, А., & Жўрабоев, И. (2024). PAXTA TOZALASH KORXONALARIDA CHIGITNI SAMARALI LINTERLASH TEXNOLOGIYASI TAHLILI. *Евразийский журнал академических исследований*, 4(4), 125-128.
3. Қабулов И., Юлдошева Д., Унгаров А. ПАХТАНИ ЕТИШТИРИШ АГРОТЕХНИКАСИ, ТЕРИМГА ТАЙЁРЛАШНИ ТАШКИЛЛАШТИРИШ ТАРТИБИ //Евразийский журнал академических исследований. – 2024. – Т. 4. – №. 1 Part 2. – С. 88-92.
4. Ungarov A., Yuldasheva D. EFFECT OF TEMPERATURE CHANGES ON FIBER QUALITY DURING STORAGE OF COTTON RAW MATERIALS //Journal of Agriculture & Horticulture. – 2024. – Т. 4. – №. 1. – С. 17-20.



5. Ungarov A., Xudayberdiev R. IMPROVING INFRARED DRYING OF AGRICULTURAL PRODUCTS //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – Т. 3. – №. 12 Part 2. – С. 230-233.
6. Ungarov A., To'raqulova O. QISHLOQ XO 'JALIGI MAXSULOTLARINI INFRA QIZIL NURLARI YORDAMIDA QURITISHNI TAKOMILLASHTIRISH //Евразийский журнал технологий и инноваций. – 2023. – Т. 1. – №. 10. – С. 38-40.
7. Khujakulov F. et al. The dependence of grape feeding on the productivity indicator and harvest quality of rizamat and large dry varieties. – 2023.
8. Qurbanov E. et al. AGRAR SOHADA RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI TAHLILI //Евразийский журнал технологий и инноваций. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 143-146.
9. Qabulov I., Maxmudov I. COTTON RECEIVING RULES IN COTTON MILLS AND COTTON RECEIVING PLACES //Евразийский журнал академических исследований. – 2024. – Т. 4. – №. 1 Part 2. – С. 93-96.
10. Qabulov I., Yuldosheva D. DETERMINATION OF IMPURITY AND MOISTURE OF RECEIVED COTTON AND CONTROL OF THE QUALITY OF COTTON STORED AT THE PREPARATION POINT //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2023. – Т. 3. – №. 6. – С. 745-748.
11. Ermamat, Qurbonov, Xudoyberdiyev Ikrom, and Yuldasheva Dilorom. "TECHNOLOGIES AND TECHNICAL TOOLS USED IN PREPARING LAND FOR PLANTING ANALYSIS." *American Journal Of Agriculture And Horticulture Innovations* 4.03 (2024): 21-24.
12. Xudoyberdiyev, I., Qurbonov, E., & Yuldasheva, D. (2024). THE IMPORTANCE OF LEVELING AND DENSIFICATION BEFORE SOWING SEEDS OF CROPS AND AGROTECHNICAL REQUIREMENTS FOR IT. *Евразийский журнал академических исследований*, 4(4), 40-43.
13. To'raqulov, M., Aynaqulov, K., & Ergashov, A. (2023). IMPORTANT AGROTECHNICAL MEASURES CARRIED OUT IN ORCHARDS AFTER THE VEGETATION PERIOD. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(12), 117-121.
14. Adhamov, A., Ungarov, A., & Jo'lbekov, I. (2023). PROSPECTS OF USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN AGRICULTURAL SECTOR DEVELOPMENT. *Journal of Agriculture & Horticulture*, 3(4), 13-15.
15. Ungarov, Azizbek, and Dilorom Yuldasheva. "PAXTA TOZALASH ZAVODLARIDA BEGONA ARALASHMALARNING TOLA VA MOMIQ SIFATIGA TASIRI." *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика* 3.4 (2024): 83-86.